

Ilmurodov Samad Xolberdiyevich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti izlanuvchisi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY-SUBYEKTIV POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA REFLEKSIV- BIOGRAFIK TOPSHIRIQLAR MAJMUASINING PEDAGOGIK VAZIFALARI

UO'K: 378

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_5_3](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_5_3)

ILMURODOV S.X. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY-SUBYEKTIV POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA REFLEKSIV-BIOGRAFIK TOPSHIRIQLAR MAJMUASINING PEDAGOGIK VAZIFALARI

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan "Refleksiv-biografik topshiriqlar majmui"ning mohiyati, tarkibiy tuzilishi va pedagogik vazifalari tahlil qilinadi. Kasbiy-subyektiv pozitsiyaning kasbiy identitet, subyektivlik, refleksiya va qadriyat tayanchlariga asoslanishi asoslab berilgan holda, majmuaga kiruvchi o'n turdagi topshiriqlarning (kasbni tanlash manbalarini aniqlash, kelajakdagi kasbiy qiyofani loyihalash, pedagogik biografiyani tahlil qilish va boshqalar) har biri bajaradigan aniq pedagogik funktsiya, ularni amalga oshirish vositalari hamda boshqa metodik yechimlar bilan uyg'unligi yoritilgan. Majmuaning bo'lajak o'qituvchini bilim iste'molchisi obyektidan o'z kasbiy rivojlanishini boshqaruvchi ongli subyektga aylantirishdagi integrativ ahamiyati asoslangan. Maqola oliy pedagogik ta'lim muassasalarida amaliy qo'llash yuzasidan tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Tayanch so'z va tushunchalar: bo'lajak o'qituvchi, kasbiy-subyektiv pozitsiya, kasbiy identitet, subyektivlik, pedagogik refleksiya, refleksiv-biografik topshiriqlar, kasbiy qadriyat, oliy pedagogik ta'lim.

ИЛМУРОДОВ С.Х. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ЗАДАЧИ КОМПЛЕКСА РЕФЛЕКСИВНО- БИОГРАФИЧЕСКИХ ЗАДАНИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-СУБЪЕКТНОЙ ПОЗИЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В статье анализируются сущность, структурный состав и педагогические функции «Комплекса рефлексивно-биографических заданий», разработанного с целью развития профессионально-субъектной позиции будущих учителей. Обосновывается, что данная позиция опирается на такие основания, как профессиональная идентичность, субъектность, рефлексия и ценность; раскрывается конкретная педагогическая функция каждого из десяти видов заданий, входящих в состав комплекса, средства их реализации, а также их согласованность с другими методическими решениями. Обосновано интегративное значение комплекса в превращении будущего учителя из объекта — потребителя знаний — в осознанного субъекта, управляющего собственным профессиональным развитием. Статья завершается рекомендациями по практическому применению в высших педагогических образовательных учреждениях.

Ключевые слова и понятия: будущий учитель, профессионально-субъектная позиция, профессиональная идентичность, субъектность, педагогическая рефлексия, рефлексивно-биографические задания, профессиональная ценность, высшее педагогическое образование.

ILMURODOV S.KH. PEDAGOGICAL TASKS OF THE COMPLEX OF REFLEXIVE-BIOGRAPHICAL ASSIGNMENTS IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL-SUBJECTIVE POSITION OF FUTURE TEACHERS

The article analyzes the essence, structural composition, and pedagogical functions of the "Complex of Reflexive-Biographical Tasks", developed to advance the professional-subjective position of future teachers. Having substantiated that this position rests on the foundations of professional identity, subjectivity, reflection and value, the study clarifies the specific pedagogical function performed by each of the ten task types comprising the complex, the means of their implementation, and their coherence with other methodological solutions. The integrative significance of the complex in transforming the future teacher from a passive recipient of knowledge into a conscious subject who manages his or her own professional development is substantiated. The article concludes with recommendations for practical application in higher pedagogical education institutions.

Key words and concepts: future teacher, professional-subjective position, professional identity, subjectivity, pedagogical reflection, reflexive-biographical tasks, professional value, higher pedagogical education.

Kirish. Zamonaviy oliy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lajak o'qituvchini nafaqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassis, balki o'z kasbiy faoliyatini ongli tashkil eta oladigan, mustaqil qaror qabul qiluvchi va uzluksiz rivojlanishga qodir subyekt sifatida shakllantirishdan iborat. YUNESKOning "O'qituvchilar bo'yicha global hisobot"ida ta'kidlanishicha, o'qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirish ularning kasbiy identitetini ongli qura olishi va o'zgarishlar davrida barqaror pozitsiyani saqlab qola olishiga bevosita bog'liq¹. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) tegishli tadqiqotida ham o'qituvchining kasbiy identiteti uni qo'llab-quvvatlovchi maxsus metodik yondashuvlar orqaligina barqaror shakllanishi mumkinligi asoslangan². O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmonida ham pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jumladan, bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil fikrlash va kasbiy mas'uliyatni shakllantiruvchi zamonaviy metodikalarni joriy etish vazifasi belgilangan³.

Kasbiy-subyektiv pozitsiya muammosi jahon pedagogika-psixologiya fanida turli jihatdan tadqiq etilgan. Xususan, D.Beyjaard, P.Meyjer, G.Biesta, K.Brodie, M.Chen, P.Hokka, S.Lai kabi xorijiy tadqiqotchilar o'qituvchining kasbiy identiteti va agentligi (teacher agency) masalalarini yoritgan bo'lsa⁴, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan A.Brushlinskiy, V.Tatenko, A.Treshhev, G.Aksenova, A.Kovaleva, M.Galanovalar o'qituvchi va pedagogika oliy ta'limi talabasining subyektiv pozitsiyasi shakllanishi mexanizmlarini tadqiq etgan⁵. O'zbekistonlik tadqiqotchilardan R.Djurayev, Sh.Mustafayev, Sh.Olimov, R.Safarova, N.Shodiyevlar bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy-kasbiy sifatлари shakl-

⁴ Beijaard D., Meijer P.C., Verloop N. Reconsidering research on teachers' professional identity // Teaching and Teacher Education. – 2004. – Vol. 20, No. 2. – P. 107–128; Priestley M., Biesta G., Robinson S. Teacher agency: An ecological approach. – London: Bloomsbury, 2015; Hökkä P., Vähäsantanen K., Mählakaarto S. Teacher educators' collective professional agency and identity // Teaching and Teacher Education. – 2017. – Vol. 63. – P. 36–46.

⁵ Аксенова Г.И. Формирование субъектной позиции учителя в процессе профессиональной подготовки: дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.01. – М., 1998. – 448 с.; Галанова М.А. Формирование профессионально-субъектной позиции студентов педвуза в процессе педагогической практики: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. – Уфа, 2006. – 173 с.; Ковалева А.М. Становление субъектной позиции студентов педагогического вуза в учебно-воспитательном процессе: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. – Красноярск, 2005. – 21 с.; Трещев А.М. Профессионально-субъектная позиция учителя. – Астрахань: Изд-во Астрах. гос. пед. ун-та, 2000. – 210 с.; Брушлинский А.В. Субъект: мышление, учение, воображение: Избр. психол. тр. – М.: Изд-во Моск. психол.-соц. ин-та; Воронеж: МОДЭК, 2003. – 407 с.

¹ Global report on teachers: addressing teacher shortages and transforming the profession. UNESCO / International Task Force on Teachers for Education 2030. – UNESCO, 2024. – P. 31.

² Teacher professional identity: How to develop and support it in times of change. OECD Education Working Paper No. 267. – OECD, 2022. – P. 46.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-son Farmoni. – QHMMB, 29.04.2025., 06/25/73/0389-son.

lanishi masalalarini, D.Narzikulova, A.Ibragimov, J.Musayev, Sh.Taylanovalar esa oliy ta'lim jarayonida talabalarda subyektivlik, mustaqillik va qadriyatlar tizimini rivojlantirish yo'nalishlarini o'rgangan¹. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning katta qismi kasbiy-subyektiv pozitsiyani umumiy nazariy tekislikda yoki allaqachon faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar misolida tahlil qiladi.

Bo'lajak o'qituvchini tayyorlash bosqichida uning shaxsiy-biografik tajribasini kasbiy rivojlanish bilan bog'lash, o'z-o'zini kasbiy subyekt sifatida anglashga xizmat qiluvchi maxsus metodik vositalar hali yetarlicha ishlab chiqilmagan². Mavjud o'quv-metodik ta'minot ko'pincha nazariy bilimlarni uzatishga yo'naltirilgan bo'lib, talabani shaxsiy tajribasini refleksiv tahlil qilish va uni kasbiy identitet bilan bog'lashga yetarlicha e'tibor qaratmaydi. Ushbu bo'shliqni bartaraf etish maqsadida tadqiqot davomida "Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishda refleksiv-biografik topshiriqlar majmui" ishlab chiqildi.

Tadqiqotning maqsadi — mazkur majmuaning tarkibiy tuzilishini, mazmunini va uning har bir komponenti bajaradigan pedagogik vazifalarni ilmiy asoslab berishdan iborat. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etiladi: kasbiy-subyektiv pozitsiyaning nazariy tayanchlarini yoritish; "Refleksiv-biografik topshiriqlar majmui"ning yaratilish zaruratini asoslash; majmuaga kiruvchi har bir topshiriqning mazmuni va pedagogik vazifasini tahlil qilish; majmuani amalga oshirish vositalarini hamda uning boshqa metodik yechimlar bilan uyg'unligini yoritish.

Asosiy qism. Kasbiy-subyektiv pozitsiyaning nazariy tayanchlari. Kasbiy-subyektiv pozitsiya — bo'lajak o'qituvchining peda-

gogik faoliyatni qadriyatli maqsadlar asosida ongli tanlashi, kasbiy vaziyatlarda tashabbus va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi hamda kasbiy identitet, subyektivlik va refleksivlik birligi orqali o'zini boshqarishini ta'minlaydigan integrativ shaxsiy xususiyatdir³. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu pozitsiya to'rtta o'zaro bog'liq nazariy tayanchga asoslanadi.

Birinchi tayanch — kasbiy identitet — talabani o'zini kelajakdagi pedagog sifatida ichdan qanday idrok etishi bilan bog'liq. Bu yerda markaziy o'rinni "kimligini", qanday mutaxassis ekanligini va nima uchun aynan shu kasbni tanlaganini anglashga qaratilgan ichki savol-javob jarayoni egallaydi. Xorijiy adabiyotlarda bu konstrukt kasbiy shakllanishning yadrosi sifatida talqin etiladi⁴: talaba pedagogik tajriba orttirgan sayin, o'zi haqidagi tasavvuri ham aniqlashib, barqarorlashib boradi. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar, xususan, amaliyot davomidagi shaxsiy o'z-o'zini anglash darajasi identitet shakllanish sur'atiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan⁵.

Ikkinchi tayanch — subyektivlik — talabani pedagogik jarayonda passiv kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatidagi o'rnini belgilaydi: u vaziyatni o'zi baholaydi, muqobil variantlarni qiyoslaydi va tanlovni o'zi amalga oshiradi⁶. Bu sifat yetarlicha shakllanmagan talaba, odatda, faqat berilgan yo'riqnomaga qat'iy amal qiladi va vaziyatdan chetga chiqishga jur'at etolmaydi; subyektivligi yuqori talaba esa, aksincha, nostandart holatlarda ham mustaqil yechim topib, natija uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. G'arb tadqiqotchilari buni "o'qituvchi agentligi" (teacher agency) atamasi bilan ifodalab, uni shaxsning atrofdagi institutsional

¹ Taylanova Sh.Z. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasi: ped. fan. dok. (PhD) diss. avtoref. — Samarqand, 2019. — 66 b.

² Cai Z., Liu Y., Deng L., et al. Preservice teachers' teaching internship affects professional identity: Self-efficacy and learning engagement as mediators // *Frontiers in Psychology*. — 2022. — Vol. 13. — Art. 1070763; Ye X., Cheng T., Yang W. Learning engagement and professional identity among pre-service teachers: The sequential mediating role of adaptability and self-concept // *Behavioral Sciences*. — 2025. — Vol. 15, No. 7. — Art. 881; Li Yan., Khairani Ahmad Zamri. Assessing factors influencing the formation of preservice teacher professional identity // *Teaching and Teacher Education*. — 2025. — Vol. 160.

³ Трещев А.М. Профессионально-субъектная позиция учителя. — Астрахань: Изд-во Астрах. гос. пед. ун-та, 2000. — 210 с.

⁴ Beijaard D., Meijer P.C., Verloop N. Reconsidering research on teachers' professional identity // *Teaching and Teacher Education*. — 2004. — Vol. 20, No. 2. — P. 107–128

⁵ Cai Z., Liu Y., Deng L., et al. Preservice teachers' teaching internship affects professional identity: Self-efficacy and learning engagement as mediators // *Frontiers in Psychology*. — 2022. — Vol. 13. — Art. 1070763

⁶ Брушлинский А.В. Субъект: мышление, учение, воображение: Избр. психол. тр. — М.: Изд-во Моск. психол.-соц. ин-та; Воронеж: МОДЭК, 2003. — 407 с.

1-jadval. Refleksiv-biografik topshiriqlar majmuasi va ularning pedagogik vazifalari

№	Topshiriq nomi	Bajaradigan pedagogik vazifasi
1	"Pedagoglik kasbini tanlash manbalarim"	Kasbiy tanlov sabablari va ichki motivlarni aniqlash; identitetni shaxsiy tajribaga tayanib shakllantirish.
2	"Kelajakdagi o'qituvchilik qiyofam: shaxsiy-kasbiy murojaat"	Kasbiy "MEN" konsepsiyasini ongli shakllantirish; o'zini kelajakdagi subyekt sifatida tasavvur qilish.
3	"Kasbiy qadriyatlarim — pedagogik tamoyilim"	Qadriyatlarga tayangan qaror qabul qilish madaniyatini rivojlantirish.
4	"Qanday o'qituvchi bo'lishni xohlayman?"	Subyektivlik va refleksiv qaror qabul qilishni, kasbiy bashorat ko'nikmasini shakllantirish.
5	"Pedagogik biografiyam: o'tmish – hozir – istiqbol"	Kasbiy rivojlanish trayektoriyasini o'tmish–hozir–istiqbol izchilligida loyihalash.
6	"Pedagogik qarashlarim xaritasi"	Ta'lim, o'quvchi, etika bo'yicha nazariy yondashuvni ochib, dunyoqarashni shakllantirish.
7	"O'qituvchilik uslubim: refleksiv portret"	Metodik uslub, muloqot va boshqaruv strategiyalarini rivojlantirish.
8	"Pedagogik refleksiya: o'zimni kasbiy subyekt sifatida baholayman"	Mustaqillik, tashabbuskorlik, etik pozitsiya mezonlari bo'yicha o'z-o'zini diagnostika qilish.
9	"Pedagogik dilemmalarim: o'z pozitsiyamni himoya qilish"	Pozitsiyani asoslash va himoya qilish, kommunikativ-axloqiy asosni rivojlantirish.
10	"O'z-o'zini rivojlantirishning shaxsiy strategiyasi"	Kasbiy rivojlanishni mustaqil boshqarish ko'nikmasini shakllantirish.

muhit bilan faol muloqotda namoyon bo'luvchi qobiliyati sifatida tushuntiradi¹.

Uchinchi tayanch — refleksiya — talabaning o'z faoliyatiga tashqaridan nazar tashlab, uni tahlil qila olish qobiliyatidir: nima yaxshi chiqdi, nima chiqmadi va nega. Bu qobiliyat tayyor holda kelmaydi — u esse yozish, portfolio yuritish, o'z darsini video orqali ko'zdan kechirish yoki hamkasblar bilan refleksiv muhokamalar orqali asta-sekin shakllanadi. Aynan shu mexanizm orqali xom tajriba anglangan, ishga yaroqli bilimga aylanadi.

To'rtinchi tayanch — qadriyat — talabaning kasbga nisbatan qanday ichki pozitsiya tutishini, nimani muhim va nimani ikkinchi darajali deb bilishini belgilaydi². Ko'zga unchalik tashlanmasa-da, bu tayanch qolgan uchta biriga bog'lovchi ip vazifasini o'taydi: identitet "kimman" degan savolga, subyektivlik "qanday harakat qilaman" degan savolga javob bersa, qadriyat "nima uchun aynan shunday harakat qilaman" degan savolga javob beradi. To'rt tayanchning shu tarzda o'zaro chatishib ketishi "Refleksiv-biografik topshiriqlar majmui"ning poydevorini tashkil etadi.

¹ Priestley M., Biesta G., Robinson S. Teacher agency: An ecological approach. — London: Bloomsbury, 2015; Hökkä P., Vähäsantanen K., Mahlakaarto S. Teacher educators' collective professional agency and identity // Teaching and Teacher Education. — 2017. — Vol. 63. — P. 36–46.

² Taylanova Sh.Z. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasi: ped. fan. dok. (PhD) diss. avtoref. — Samarqand, 2019. — 66 b.

Majmuani ishlab chiqish zarurati. Yuqorida keltirilgan to'rt tayanchni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki yaxlit tizim sifatida rivojlantirish alohida metodik yondashuvni talab etadi. An'anaviy o'qitish metodlari ko'pincha nazariy bilim uzatishga yo'naltirilgan bo'lib, talabaning shaxsiy-biografik tajribasini kasbiy identitet, subyektivlik va qadriyatlar bilan bog'lashga yetarlicha imkon bermaydi. Shu bo'shliqni bartaraf etish, bo'lajak o'qituvchini o'z shaxsiy tajribasini tizimli tahlil qilishga undash maqsadida tadqiqot davomida "Refleksiv-biografik topshiriqlar majmui" loyihalandi.

An'anaviy yondashuvlardan farqli jihati. Oliy pedagogik ta'limda keng tarqalgan an'anaviy topshiriqlar, odatda, talabadan nazariy bilimni takrorlash yoki tayyor pedagogik holatni tahlil qilishni talab etadi, biroq talabaning shaxsiy tajribasiga murojaat qilmaydi. Natijada, o'zlashtirilgan bilim ko'pincha talabaning shaxsiy-kasbiy tajribasidan ajralgan holda qoladi. Refleksiv-biografik topshiriqlar majmuasining tubdan farqi shundaki, u har doim talabaning o'z hayotiy va kasbiy tajribasidan boshlanadi hamda nazariy bilimni aynan shu tajriba orqali o'tkazishga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarning barqarorligini hamda ularning amaliyotga ko'chirilish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.

Majmua bir-biri bilan uzviy bog'liq o'n turdagi topshiriqdan iborat bo'lib, ularning har biri bo'lajak o'qituvchi subyektiv pozitsiyasini rivojlantiruvchi alohida pedagogik funksiyani bajaradi (1-jadval).

Keltirilgan topshiriqlar tizimi izchil mantiqqa ega: dastlabki uch topshiriq (1–3) bo'lajak o'qituvchining kasbga kirish sabablari va qadriyat asoslarini aniqlashga, keyingi uch topshiriq (4–6) uning kelajakka yo'naltirilgan kasbiy qiyofasi va dunyoqarashini loyihalashga, so'nggi to'rt topshiriq (7–10) esa shakllangan pozitsiyani amaliyotda namoyon etish, himoya qilish va mustaqil rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday izchillik topshiriqlar majmuasini tasodifiy to'plam emas, balki "o'tmishni anglash — hozirgi holatni tahlil qilish — kelajakni loyihalash" mantiqiga asoslangan yaxlit metodik tizim sifatida talqin etish imkonini beradi.

Majmuaga kiruvchi topshiriqlarning mazmuni. Jadvalda umumlashtirilgan har bir topshiriqning mazmuni quyida batafsil yoritiladi.

Majmua "Pedagoglik kasbini tanlash manbalarim" topshirig'idan boshlanadi: talaba orqaga qaytib, aynan nima uni ushbu kasbga yetaklaganini — qaysi voqea, qaysi inson yoki qaysi ichki istak sabab bo'lganini — yozma tarzda qayta tiklaydi. Maqsad oddiy: kasb tanlovini tasodifiy emas, balki ongli va shaxsiy tarixga tayangan qaror sifatida qayta anglash.

Ikkinchi topshiriqda talaba, aksincha, oldinga — kelajakka — qarab, o'ziga xat ko'rinishida murojaat yozadi: bir necha yildan so'ng qanday pedagog bo'lishni orzu qilayotgani haqida. "Kelajakdagi o'qituvchilik qiyofam: shaxsiy-kasbiy murojaat" nomli bu mashq shunchaki xayolot emas, balki kasbiy "MEN" obrazini ongli tarzda loyihalash vositasi bo'lib, talabaga o'zini kelajakdagi mutaxassis sifatida "ko'rish" imkonini beradi.

"Kasbiy qadriyatlarim — pedagogik tamoyilim" deb nomlangan uchinchi topshiriq talabani o'zi uchun eng muhim sanaladigan bir necha pedagogik qadriyatni (masalan, adolat yoki individual yondashuv) aniq atash va ularni kundalik amaliyotda qanday tatbiq etishini tasvirlashga undaydi. Shu tariqa qaror qabul qilish tasodifiy emas, balki ongli belgilangan ichki tamoyillarga tayanadigan jarayonga aylanadi.

To'rtinchi, "Qanday o'qituvchi bo'lishni xohlayman?" topshirig'i talabani muammoli vaziyat asosida dalilga tayangan tanlov qilishga undaydi, natijada uning bashorat qilish va o'z qarorini asoslash ko'nikmasi mustahkamlanadi.

Beshinchi topshiriq — "Pedagogik biografiyam: o'tmish — hozir — istiqbol" — talabani o'z kasbiy yo'lini yagona chiziq bo'ylab ko'rishga o'rgatadi: qayerdan boshlangan, hozir qayerda turibdi va qayerga borishni maqsad qilgan. Natijada parcha-parcha voqealar o'rniga yaxlit va mantiqiy rivojlanish trayektoriyasi paydo bo'ladi.

Oltinchi, "Pedagogik qarashlarim xaritasi" topshirig'i talabani ta'lim, o'quvchi va etika haqidagi qarashlarini bitta "xarita"ga joylashtiradi, shu orqali uning ongida hali to'liq shakllanmagan pedagogik dunyoqarashi ko'zga ko'rinadigan, muhokama qilinadigan shaklga keladi.

Yettinchi topshiriqda talaba o'z-o'zini "tashqaridan" kuzatib, metodik uslubi, muloqot manerasi va sinfni boshqarish yo'li qanday ekanini tasvirlaydi ("O'qituvchilik uslubim: refleksiv portret") — bu esa nazariy bilimdan amaliy uslubga o'tishning ko'prigi vazifasini bajaradi.

Sakkizinchi topshiriq — o'ziga xos o'z-o'zini diagnostika turi ("Pedagogik refleksiya: o'zimni kasbiy subyekt sifatida baholayman") — talabadan mustaqillik, tashabbuskorlik va etik pozitsiya kabi mezonlar bo'yicha hozirgi holatini xolisona baholashni so'raydi, bu esa keyingi rivojlanish uchun aniq yo'nalish beradi.

To'qqizinchi, "Pedagogik dilemmalarim: o'z pozitsiyamni himoya qilish" topshirig'ida talabaga ataylab qarama-qarshi manfaatlarni o'z ichiga olgan qiyin vaziyat beriladi va u qabul qilgan qarorini guruh oldida ochiq himoya qilishi kerak bo'ladi — bu mashq pozitsiyani nafaqat shakllantiradi, balki uni himoya qila olish ko'nikmasini ham sinaydi.

Majmua "O'z-o'zini rivojlantirishning shaxsiy strategiyasi" topshirig'i bilan yakunlanadi: talaba o'zi uchun qisqa va uzoq muddatli rivojlanish rejasini tuzadi. Aynan mustaqil ravishda o'z kelajagini rejalashtira olish — subyektivlikning eng yuqori, amaliy ko'rinishi hisoblanadi.

Amaliy qo'llash namunasi. Majmuaning amaliy qo'llanilishini yaqqol ko'rsatish maqsadida bitta namunani keltiramiz. "Pedagogik biografiyam: o'tmish — hozir — istiqbol" topshirig'ini bajarayotgan talaba dastlab o'zining maktab davridagi eng yaxshi ko'rgan o'qituvchisi haqida yozadi va uning qanday xususiyatlari o'ziga ta'sir qilganini tahlil qiladi (o'tmish bos-

qichi). So'ngra hozirgi pedagogik amaliyotida duch kelgan bir qiyin vaziyatni — masalan, sinfda diqqatini jamlay olmayotgan o'quvchi bilan ishlash tajribasini — tasvirlaydi va bu vaziyatda o'zi qanday pozitsiya tutganini refleksiv tahlil qiladi (hozirgi bosqich). Yakunida esa bir necha yildan keyin qanday o'qituvchi bo'lishni istashini va bunga erishish uchun qaysi kasbiy sifatlarni rivojlantirishi lozimligini belgilaydi (istiqbol bosqichi). Bunday izchil yozma ish talabaga o'z kasbiy yo'lini uzoq-yuluq voqealar to'plami sifatida emas, balki ma'noli va boshqariladigan trayektoriya sifatida ko'rishga o'rgatadi. Xuddi shunga o'xshash tarzda, "Pedagogik dilemmalarim" topshirig'ida talabaga ikki o'quvchi o'rtasida adolat va individual yondashuv o'rtasida muvozanat topish lozim bo'lgan vaziyat taqdim etilishi, uni guruh oldida asoslashi va boshqalarning savollariga javob berishi mumkin — bu esa pozitsiyani nafaqat shakllantirish, balki uni ochiq muhitda himoya qila olishni ham o'rgatadi.

Majmuani amalga oshirish vositalari. Topshiriqlarni faqat qog'ozga yozilgan matn sifatida emas, balki bir necha turdagi vosita orqali amalga oshirish nazarda tutiladi, chunki talabalar orasida idrok uslubi bir xil emas. Kimdir fikrini eng yaxshi yozma shaklda — esse, biografik yozuv, shaxsiy murojaat ko'rinishida — ifodalasa, boshqasi vizual vosita: konseptual xarita, pozitsiya sxemasi yoki qarorlar daraxti orqali fikrlashni afzal ko'radi. Zamonaviy talabalar uchun esa videoyozuv, raqamli annotatsiya va onlayn platformalarga asoslangan raqamli format ko'pincha tabiiyroq keladi. Bulardan tashqari, natijalarni o'lchash va sifat dinamikasini kuzatish uchun anketa, Likert shkalasi, o'z-o'zini baholash varaqasi kabi diagnostik vositalar ham qo'llaniladi. Yakunda esa barcha bu materiallar — yozma, vizual, raqamli va diagnostik — yagona portfolioga jamlanadi, bu esa bo'lajak o'qituvchining kasbiy-subyektiv pozitsiya trayektoriyasini vaqt o'tishi bilan yaxlit holda kuzatib borish imkonini beradi.

Majmuani qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari. Majmuaning samarali ishlashi uni mos pedagogik shart-sharoitlar bilan ta'minlashni talab etadi. Jamoaviy hamkorlik asosida bilim va tajribalar almashish intensivligini rag'batlantirish talabaga o'z topshiriq

natijalarini guruhdoshlari bilan muhokama qilish, muqobil qarashlarni eshitish va o'z pozitsiyasini aniqlashtirish imkonini beradi. Muammoli pedagogik vaziyatlarda mustaqil, ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini ustuvorlashtirish esa topshiriqlarni mexanik to'ldirishdan ko'ra, ularni chinakam pedagogik tajribaga aylantirishga xizmat qiladi. Gumanistik, ijtimoiy-hissiy intellekt va mas'uliyatlilikni rivojlantiruvchi munosabatlarni mustahkamlash esa talabaning shaxsiy-biografik tajribasini xavfsiz va ishonchli muhitda ochiq ifodalashi uchun zaruriy asos hisoblanadi, chunki refleksiv-biografik topshiriqlarning aksariyati shaxsiy tajribaga bevosita murojaat qiladi. Shu boisdan majmuani alohida uslubiy vosita sifatida emas, balki yaxlit pedagogik shart-sharoitlar tizimining tarkibiy qismi sifatida qo'llash tavsiya etiladi.

Majmuaning boshqa metodik komponentlar bilan uyg'unligi. Har bir alohida topshiriq o'zicha ham foydali, biroq majmuaning haqiqiy qiymati ularning barchasi birgalikda ishlaganda namoyon bo'ladi: talaba shaxsiy tajribasini turli burchaklardan — yozma, vizual, diagnostik shaklda — qayta-qayta ifodalalar ekan, bu tajriba tobora chuqurroq anglashilib boradi. Uzoq muddatda bunday takrorlanuvchi refleksiya o'zining samarasini beradi — talaba pedagogik vazifalarni shunchaki bajaruvchidan, ularni tahlil qilib, xulosa chiqarib, kelgusi qadamini ongli tarzda qayta qura oladigan mutaxassisga aylanadi.

Amaliyotda majmuani qo'llash tajribasi shuni ko'rsatdiki, refleksiv-biografik topshiriqlar alohida-alohida emas, balki bir-birini to'ldiruvchi izchil tizim sifatida taqdim etilganda eng yuqori pedagogik samara beradi. Xususan, "Qadriyat" savollar algoritmi kabi qo'shimcha refleksiv-didaktik vosita bilan uyg'unlashtirilganda, majmua talabaning nafaqat o'z tajribasini tasvirlashi, balki uni chuqur tahlil qilib, amaliy pedagogik qarorlarga aylantirishi uchun ham asos yaratadi. Majmua Samarqand, Qattaqo'rg'on va Buxoro davlat pedagogika institutlarida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari doirasida sinovdan o'tkazildi; amaliy tatbiq jarayonida topshiriqlar "fikrlash – harakat – tahlil – qayta loyihalash" funksional algoritmi asosida, muammoli vaziyatlar bilan ishlash, refleksiv amaliyot, hamkorlikda

ishlash va prediktiv prognozlash shakllarida tashkil etildi.

Majmua samaradorligini baholash mezonlari. Majmuani qo'llash natijasida bo'lajak o'qituvchida yuzaga keladigan o'zgarishlarni qayd etish uchun to'rtta o'zaro bog'liq mezon-dan foydalanish maqsadga muvofiq: kognitiv mezon — pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va qarorlarni ilmiy asoslash qobiliyati; hissiy mezon — ijtimoiy-hissiy barqarorlik va empatik sezgirlik; operativ mezon — faoliyatni mustaqil tashkil etish va tezkor qaror qabul qilish amaliyoti; axloqiy mezon — kasbiy axloq, mas'uliyat va shaxsiy-kasbiy tutumlar. Har bir refleksiv-biografik topshiriq ushbu mezonlarning kamida bittasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi: masalan, "Pedagogik dilemmalarim: o'z pozitsiyamni himoya qilish" topshirig'i axloqiy va kommunikativ jihatlarni, "O'qituvchilik uslubim: refleksiv portret" esa operativ mezonni faollashtiradi. Shu mezonlar asosida tashkil etilgan kuzatuv bo'lajak o'qituvchining kasbiy-subyektiv pozitsiyasi rivojlanish dinamikasini ob'ektiv baholash imkonini beradi.

Xulosalar.

1. O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, bo'lajak o'qituvchining kasbiy-subyektiv pozitsiyasi kasbiy identitet, subyektivlik, refleksiya va qadriyat tayanchlarining uzviy birligi sifatida namoyon bo'ladi va uni rivojlantirish maxsus tashkil etilgan metodik vositalarni talab qiladi; ikkinchidan, "Refleksiv-biografik topshiriqlar majmui" o'n turdagi o'zaro bog'liq topshiriqdan

iborat bo'lib, har biri alohida pedagogik funksiyani bajaradi hamda "o'tmishni anglash — hozirgi holatni tahlil qilish — kelajakni loyihalash" izchil mantiqiga asoslanadi; uchinchidan, majmuani matnli, diagnostik, vizual, raqamli va portfolioga asoslangan vositalar bilan uyg'unlashtirib qo'llash uning pedagogik samaradorligini oshiradi; to'rtinchidan, majmua boshqa refleksiv-didaktik vositalar, xususan, "Qadriyat" savollar algoritmi bilan integratsiyalashgan holda qo'llanilganda eng yuqori natija beradi.

2. Shu asosda oliy pedagogik ta'lim muassasalariga quyidagilar tavsiya etiladi: "Pedagogika", "Pedagogik mahorat", "Kasbiy pedagogika" kabi fanlar mazmuniga refleksiv-biografik topshiriqlar tizimini bosqichma-bosqich joriy etish; pedagogik amaliyot davomida talabalarga portfolio yuritishni majburiy topshiriq sifatida belgilash; professor-o'qituvchilar uchun majmuani qo'llash bo'yicha uslubiy qo'llanmalar va treninglar tashkil etish. Bunday tizimli yondashuv bo'lajak o'qituvchini bilim iste'molchisi obyektidan o'z kasbiy taqdirini ongli boshqaruvchi subyektga aylantirish jarayonini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlaydi.

3. Kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish sifatida majmuaning turli yo'nalish (boshlang'ich ta'lim, aniq fanlar, kasb-hunar ta'limi) bo'lajak o'qituvchilariga moslashtirilgan variantlarini ishlab chiqish, shuningdek, uning uzoq muddatli qo'llanilishi natijasida kasbiy-subyektiv pozitsiya dinamikasini kuzatib boruvchi longityud tadqiqotlarni tashkil etish ko'rsatilishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-son Farmoni. – QHMMB, 29.04.2025., 06/25/73/0389-son.
2. Global report on teachers: addressing teacher shortages and transforming the profession. UNESCO / International Task Force on Teachers for Education 2030. – UNESCO, 2024. – P. 31.
3. Teacher professional identity: How to develop and support it in times of change. OECD Education Working Paper No. 267. – OECD, 2022. – P. 46.
4. Аксенова Г.И. Формирование субъектной позиции учителя в процессе профессиональной подготовки: дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.01. – М., 1998. – 448 с.

5. Галанова М.А. Формирование профессионально-субъектной позиции студентов педвуза в процессе педагогической практики: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. – Уфа, 2006. – 173 с.
6. Ковалева А.М. Становление субъектной позиции студентов педагогического вуза в учебно-воспитательном процессе: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. – Красноярск, 2005. – 21 с.
7. Трещев А.М. Профессионально-субъектная позиция учителя. – Астрахань: Изд-во Астрах. гос. пед. ун-та, 2000. – 210 с.
8. Брушлинский А.В. Субъект: мышление, учение, воображение: Избр. психол. тр. – М.: Изд-во Моск. психол.-соц. ин-та; Воронеж: МОДЭК, 2003. – 407 с.
9. Taylanova Sh.Z. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasi: ped. fan. dok. (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – 66 b.
10. Beijard D., Meijer P.C., Verloop N. Reconsidering research on teachers' professional identity // Teaching and Teacher Education. – 2004. – Vol. 20, No. 2. – P. 107–128.
11. Priestley M., Biesta G., Robinson S. Teacher agency: An ecological approach. – London: Bloomsbury, 2015.
12. Hökkä P., Vähäsantanen K., Mahlakaarto S. Teacher educators' collective professional agency and identity // Teaching and Teacher Education. – 2017. – Vol. 63. – P. 36–46.
13. Cai Z., Liu Y., Deng L., et al. Preservice teachers' teaching internship affects professional identity: Self-efficacy and learning engagement as mediators // Frontiers in Psychology. – 2022. – Vol. 13. – Art. 1070763.